

Sobira TIRKASHEVA,

ToshDO'TAU

Masofaviy ta'lim kafedrasida o'qituvchisi

Ozoda QAYUMOVA,

ToshDO'TAU

Masofaviy ta'lim kafedrasida stajyor-o'qituvchisi

ZAMONAVIY O'ZBEK NASRIDA ISMLAR POETIKASI

(Said Ahmad ijodi misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada Said Ahmad hikoyalaridagi personaj ismlarining badiiy va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Adib o'z asarlarida xarakter yaratishda, ularning fe'l-atvori va ijtimoiy mavqeyini ochib berishda ismlardan mahorat bilan foydalanadi. Maqolada yozuvchining nom tanlashdagi uslubi, ismlarning milliy va tarixiy kontekstga bog'liqligi, shuningdek, ularning poetik hamda satirik talqini o'rganiladi. Tadqiqot natijasida Said Ahmad hikoyalaridagi ismlar poetikasining adabiy-estetik ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: *ismlar simvologiyasi, Said Ahmad, ismlar poetikasi, badiiy obraz, xarakter yaratish, semantika, milliy kontekst, satira*

Annotation: this article analyzes the artistic and semantic properties of personage names in Said Ahmad's stories. Adib skillfully uses names in his works to create characters, reveal their character and social status. The article examines the writer's name choice, the relationship of names to the national and historical context, as well as their poetic and satirical interpretation. The study highlights the literary and aesthetic significance of the poetics of names in Said Ahmad's stories.

Key words: *symbolism of Names, Said Ahmad, Poetics of Names, Artistic Object, Character Creation, Semantics, National Context, Satire.*

Аннотация: в данной статье анализируются художественно-семантические свойства имен персонажей в рассказах Саида Ахмада. Адиб умело использует имена в своих произведениях для создания персонажей, раскрытия их характера и социального статуса. В статье рассматривается писательский метод выбора имен для персонажей, отношение имен к национальному и историческому контексту, а также их поэтическая и сатирическая интерпретация. В исследовании подчеркивается литературная и эстетическая значимость поэтики имен в рассказах Саида Ахмада.

Ключевые слова: *символика имен, Саид Ахмад, поэтика имен, художественный объект, создание характера, семантика, национальный контекст, сатира.*

Kirish. O'zbek adabiyoti o'z tarixida inson va uning ichki dunyosini ifoda etishda turli badiiy usullarni shakllantirdi. Shu jarayonda qahramonlarning ismlari ham alohida poetik vazifa bajarib, ularning xarakterini ochish, mazmunni boyitish va asar maqsadini ifodalashda muhim vositaga aylangan. Zamonaviy o'zbek nasrida ismlar poetikasi yanada murakkablashib, chuqur ramziy ma'nolarni ifodalash imkoniyatiga ega bo'ldi. O'zbek adabiyotida figura va simvol sifatida ishlatiladigan ismlar ko'pincha muallifning ifoda etayotgan g'oyalari hamda rejalariga bog'liq bo'ladi. Ular asarlarga chuqur ma'no va mazmun beradi. Masalan, qahramon nomlarining tanlanishi ularning xakteri va hayotdagi o'rnini anglatadi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida Kumush ismi sof va begunoh muhabbatni ifodalasa, Otabek ismi erksevarlik va fidoyilik ramzi sifatida talqin qilinadi. O'zbek adabiyotida milliy an'analar ismlar orqali ifodalanadi. Ular ko'pincha ma'lum bir tarixiy yoki madaniy kontekstdagi ahamiyatga ega. Ismning o'zi millat tarixini, urf-odatlarini va an'alarini aks ettirishi mumkin. Misol uchun, "Dilshod", "Gulbahor" kabi ismlar o'zbek madaniyatida o'ziga xos bir o'rin tutadi. Yozuvchilar

tomonidan qadimiy yoki diniy mazmundagi ismlarning tanlanishi badiiy uslubni boyitadi va asar mazmunini chuqurlashtiradi. Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" asarida qahramonlar ismlari xalqona va arxaiq uslubda tanlangan bo'lib, bu o'zbek qishloq hayoti va an'alarining poetik ifodasini beradi.

Asosiy qism. Zamonaviy o'zbek nasrida ismlar simvologiyasi muhim badiiy vositalardan biri bo'lib, u qahramonlarning xarakterini ochib berish, muallif g'oyasini chuqurlashtirish va asarning semantik qatlamini boyitish uchun qo'llaniladi.

1. Ism va xarakter uyg'unligi

Ko'pgina o'zbek yozuvchilari qahramonlari uchun ularning xakteri va qismatiga mos keladigan ismlarni tanlashadi. Masalan: Islom – Islom dini bilan bog'liq ma'naviy, iymonli shaxsni ifodalashi mumkin. Mehriniso – "Mehr" so'zi bilan bog'liq bo'lib, odatda samimiy va mehribon obrazlar uchun ishlatiladi. Zebo – go'zallik ramzi sifatida ayol qahramonlarga beriladi.

2. Simvolik ismlar va ularning badiiy ma'nosi

Ba'zi ismlar o'z mazmuni bilan asar g'oyasini kuchaytiradi: Komil, Fozil – mukammallik va donolikni

anglatuvchi obrazlar. Shodmon, Xurram – baxt, quvonch, lekin ba’zan bu ismlar ironik ma’noda ham ishlatilishi mumkin. Otabek (Abdulla Qodiriy, “O’tkan kunlar”) – millatning uyg’onish davrini aks ettiruvchi tarixiy qahramon. Ismlar simvologiyasi nasrni yanada chuqurlashtirib, o’quvchi tafakkuriga ta’sir o’tkazadigan omillardan biridir.

Ushbu kichik tadqiqotimiz orqali o’zbek adabiyotida o’z o’rniga ega mohir hikoyanavis Said Ahmad nasriy asarlarida qo’llanilgan ismlar poetikasini tahlilga oldik.

Said Ahmad ijodi o’zbek hikoyachiligining yorqin namunasidir. Uning hikoyalari nafaqat voqea-hodisalarining qiziqarliligi, balki obrazlarning chuqurligi, tilning ifodasi bilan ham ajralib turadi. Said Ahmad qahramonlariga qo’yadigan ismlar tasodifiy emas, balki ularning xarakteri, taqdiri, ijtimoiy mavqeyi bilan chambarchas bog’liqdir. Uning hikoyalarida ismlar nafaqat shaxsni belgilash vositasi, balki badiiy ifoda vositasiga aylanadi. Ular voqealar rivojini oldindan aytib berish, obrazlar haqida qo’shimcha ma’lumot berish, qahramonlarning ichki dunyosini ochib berish vazifasini o’taydi. Uning hikoyalari realistlik tasvir, xalqona uslub va keskin satirik ruh bilan ajralib turadi. Adib o’z asarlarida qahramon xarakterini ochib berishda ismlardan samarali foydalanadi.

Said Ahmadning “Qoplon” hikoyasi satirik asarning yaxshi namunasi bo’lib, kishilardagi xushomadgo’ylik, laganbardorlik, o’z manfaati yo’lida andisha ham qilmay, bezbetlarcha ish tutish, odamlarni amal kursisiga qarab muomala qilish kabi yaramas illatlar tanqid ostiga olinadi. Hikoyaning bosh qahramoni Qurbonboy esa, xo’jayiniga yoqish maqsadida unga Qoplon laqabli itini sovg’a qiladi. Uning asl maqsadi manfaatparstlik bo’lib, bu yo’lda u hech narsadan qaytmaydi. Bu maqsadini amalga oshirishni ko’zlagan Qurbonboy yozuvchi turli qiyofalarga kiritadi. Qurbonboy obrazining tovlanishlari o’quvchining g’ashini keltiradi dastlab u o’zini g’oyatda oliyjanob qilib ko’rsatishga urinadi va bunga erishadi ham. Said Ahmad Qurbonboy nutqini ham o’ziga xos va mos qilib tanlaydi. U xushomadgo’yga xos harakatlarni juda epchillik va chaqqonlik bilan bajaradi. [3]

Qurbonboy, ismi-jismiga mos qurbon, biroq o’zgalarning maqsadlari yo’lida emas, balki o’z manfaatlari, maqsadlariga erishish yo’lida o’zini hamma narsaga qurbon qiluvchi manfaatparast inson sifatida tasvirlanadi.

Said Ahmad asarlarida ismlar poetikasining o’ziga xosligi.

1. Ismlarning badiiy va semantik yuklamasi.

Said Ahmad hikoyalarida har bir personajning ismi uning xarakteri va hikoya syujeti bilan bevosita bog’liq bo’ladi. Yozuvchi oddiy va xalqona nomlarni tanlash orqali qahramonning ijtimoiy mavqeyi, fe’l-atvori va taqdiri haqida ma’lumot beradi. Masalan, adibning

“Sarob” hikoyasidagi Kimsan hamda Olimjon obrazlari. Yozuvchining “Sarob” hikoyasi qahramoni Kimsanboy. Kimsan? Odammisan, shaytonmisan, ablahmisan? Kimsan? Yozuvchi mahorati sabab, qahramon ismiga ham alohida ma’no yuklanadi. [2] Shuningdek, yozuvchi ushbu hikoyada peresonaj ismlarini mahorat bilan tanlaydiki, kitobxon ismlar orqali ham garchi ular ota-bola bo’lsada ular o’rtasidagi konfliktni ilg’ab oladi. “Sarob” hikoyasida ikki avlod tasviri bor. Ota va o’g’il o’rtasidagi konflikt-davr ziddiyati darajasiga ko’tariladi. Noshud o’g’il otasini “dushman” qatoriga qo’shib, o’z hayotida yaxshilik topmaydi. Bu konflikt “Ufq” dagi Ikromjon bilan Tursunboy o’rtasida ham bor edi. “Sarob” hikoyasida o’sha ota-bola zidlashadi: Kimsanboy (Olimjonov) Yolqinov bilan Olimjon domla. Kimsan-otasi tarixchi muallim Olimjon domlani GPU xodimlariga chaqib beradi. O’quvchilik davrida shu “xizmati” uchun qo’l soati oladi. Adib ota-bolani lagerda uchrastiradi. Ota-bolasini taniydi, ammo abgor holga tushgan Kimsan otasini tanimaydi. Ko’ksiga stalin rasmi tushirilgan Kimsan lager rassomidan qora bo’yoq so’raydi. Ko’ksidagi rasm ustini yopmoqchi u. Xullas, shunday fojeaviy taqdir egasi ko’rsatiladi hikoyada. [1]

2. Ismlarning milliy va tarixiy kontekstdagi roli

Said Ahmadning asarlarida milliylik muhim ahamiyat kasb etadi. Personaj ismlarida o’zbek xalqining an’anaviy nomlash tizimi yaqqol ko’rinadi. Ba’zi asarlarida qadimiy yoki ramziy ismlar ishlatilgan bo’lib, ular o’sha davr muhitini va qahramonning tarixiy ildizlarini ifodalaydi. Adibning “Ufq” trilogiyasidagi personajlarga qo’yilgan ismlar Tursunboy, Ikromjon, Jannat xola, Azizxon, Nizomjon kabilar. [6] Ushbu asarda Said Ahmad yaratgan obrazlarni e’tiborga oladigan bo’lsak, Tursunboy, Ikromjon, Jannat xola, Azizxon, Nizomjon, Azizxon, Dildor, Zebi, Dildor, Asrora kabi teran, xalqchil, yorqin milliy obrazlar yaratilganki, ularga qo’yilgan ismlar oraqli ham qahramonlarning o’sha davr muhitini ochishda ham muhim rol o’ynaganini ko’rishimiz mumkin.

Ismlar va obraz yaratish mahorati

Said Ahmad o’z hikoyalarida qahramon nomlari orqali ularning xarakterini yoritishda mahorat bilan yondashadi. Ba’zi ismlar qahramonlarning fe’l-atvoriga, hayot yo’liga mos tushsa, boshqalari esa istehzo orqali o’quvchida kulgu va kinoya uyg’otadi. Bu usul adibning hikoyalariga o’ziga xos badiiy joziba bag’ishlaydi. Yozuvchining “Qorako’z Majnun” hikoyasida Saodat, Bo’rixon, Qorako’z Majnun kabi personajlar ismlari. Ushbu hikoyada o’zligini, dinini, urf-odatlarini yo’qotgan, onasini va oila a’zolarini unutgan Bo’rixon obrazi Qorako’z Majnun, ya’ni egasiga vafodor, sodiq aqlli itga qarama-qarshi qo’yiladi, Saodat kampir vafodor, andisha va or-nomusni birinchi o’ringa qo’yadigan ayol sifatida tasvirlanadi, u hayoti davomida saodatini topolmasa ham jamiyat ko’z o’ngida “baxtli ayol” sifatida qabul qilinadi, ammo uning qalbi iztiroblarga to’la edi.

Xulosa. Said Ahmad qahramonlarning ismlarini shunchaki tasodifiy tanlamagan, balki ularning xarakteri, jamiyatdagi o'rnini va taqdirini chuqur ochib berish uchun ismlarga ramziy ma'no yuklagan. Ismlar orqali xarakter ochilishi – yozuvchi qahramonlarning fe'l-atvorini ularning ismlari orqali chuqur yoritgan.

Umuman olganda, adib ismlar poetikasi orqali hikoyalariga chuqur ma'no va badiiy jonlilik bag'ishlagan. Ismlar qahramonlarning fe'l-atvori, taqdiri va asarning asosiy g'oyalarini chuqurroq anglashga xizmat qilgan bo'lib, yozuvchining badiiy mahoratini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bahodir Karim Said Ahmad Xikoyalarida obrazlararo ziddiyat "Said Ahmad ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati va zamonaviy o'zbek adabiyoti" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallari to'plami, –Toshkent, 22-iyun 2020-yil.4-b.
2. Dilmurod Xoldorov, Sadoqat Erkinjonova Said Ahmad hikoyalarida uslub muammosi Said Ahmad ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati va zamonaviy o'zbek adabiyoti mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallari to'plami, –Toshkent, 22-iyun 2020-yil.41-b.
3. Obidjon Karimov, Go'zalxon Mamajonova Said Ahmad – shaxs va jamiyat ilmlarini foish etuvchi san'atkor. Said Ahmad ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati va zamonaviy o'zbek adabiyoti mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallari to'plami, –Toshkent, 22-iyun.2020-yil.36-b.
4. Said Ahmad Sarob. –T.: Sano-standart nashriyoti, 2024-yil.
5. Said Ahmad Qorako'z Majnun. –T.: Sano-standart nashriyoti, 2024-yil.
6. Said Ahmad "Ufq" –T.: Yangi asr avlodi, 2015-yil.



Dilmurod ESHANQULOV,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi,
Tosh DO'TAU mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: dilmurodeshanqulov109@gmail.com

SURXONDARYO SHEVALARIDA UMUMIY BO'LGAN LEKSIK QATLAM

Annotatsiya: ushbu maqolada Surxondaryo Qarluq va qipchoq shevalarida hamda turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar haqida fikr yuritiladi. O'zbek tilining asosini tashkil qiluvchi tub o'zbekcha so'zlar boshqa shevalar singari Surxondaryo qarluq va qipchoq shevalarining ham asosini tashkil etadi. Bunday so'zlar ba'zi fonetik farqlar bilan boshqa qardosh turkiy tillar uchun ham umumiylikka egaligi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: turkiy til, qarluq, qipchoq, o'g'uz, orqador, "Devoni lug'atit- turk", burom-(muyulish), yenchini, basalqa, umumturkiy leksik qatlam.

Annotation: three articles discuss words common to the Surkhondaryo Karluk and Kipchak dialects and to Turkic languages. The original Uzbek words that form the basis of the Uzbek language also form the basis of other dialects, Surkhondaryo Karluk and Kipchak dialects. It is reported that such words, with some phonetic differences, are also common to other related Turkic languages.

Key words: turkic language, Karluk, Kipchak, Oghuz, Arkador, "Devoni lug'atit-turk", burom-(muyulish), yenchini, bazalka, all-Turkic lexical layer.

Аннотация: в данной статье рассматриваются слова, общие для сурхандарьинских карлукских и кипчакских диалектов и тюркских языков. Основные узбекские слова, составляющие основу узбекского языка, составляют основу сурхандарьинских карлукских и кипчакских диалектов, а также других диалектов. Приводятся сведения, что такие слова являются общими для других родственных тюркских языков с некоторыми фонетическими различиями.

Ключевые слова: тюркский язык, карлук, кыпчак, огуз, аркадар, «девони лугатит-тюрк», буром-(муюлиш), енчи, басалка, общетюркский лексический пласт.

Kirish (Introduction). Markaziy Osiyo hududida yashovchi mahalliy turkiy xalqlar tillarining leksik qatlamidagi asl turkiy so'zlar orasida ko'p jihatdan o'xshashlik bor. Bu o'xshash so'zlar eng muhim tushunchalarni ifodalaydi va bir xil vazifada ishlatiladi. Lekin ba'zi so'zlar turkiy tillarning

o'z fonetik talaffuz me'yorlariga bo'ysungan holda biroq boshqacharoq talaffuz qilinadi. Demak, biz turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar haqida fikr yuritish ekanimiz bunda fonetik o'zgarishlar emas, tub va tipologik o'zgarishlarni nazarda tutish darkordir. Agar shevalar leksikasining lug'at